Abstract. This article examines modern methodological approaches to optimizing receivables and payables at enterprises. In a market economy, the financial stability, solvency and competitiveness of business entities largely depend on the level of effective management of receivables and payables. An increase in receivables slows down the turnover of the enterprise's working capital and leads to a decrease in liquidity indicators, while an excessive increase in payables can increase financial risks and lead to a violation of payment discipline. From this point of view, it is important to form the optimal volume of these debts and improve scientifically based mechanisms for their management. The purpose of the study is to analyze modern methodological approaches to optimizing receivables and payables at enterprises, assess their impact on financial results, and develop scientific proposals and practical recommendations aimed at increasing management efficiency. In the research process, systematic analysis, comparative analysis, economic and statistical methods, coefficient analysis, grouping and comparison methods were used. Also, the assessment was carried out based on the turnover coefficients of receivables and payables, current and operational liquidity indicators, cash flows and financial stability indicators. The results of the study showed that the use of digital technologies in the receivables and payables management system, strengthening financial monitoring and introducing risk-based management mechanisms serve to improve the financial condition of enterprises. In particular, real-time monitoring of the debt situation through ERP and CRM systems, analysis of the solvency of counterparties based on rating methods, and the effective use of financial instruments such as factoring and forfeiting allow for the acceleration of the turnover of receivables. At the same time, it was determined that cash flow forecasting, the formation of payment calendars and regular analysis of the maturity structure of obligations are of great importance in managing payables. The article proposes an integrated management model based on the mutual coordination of receivables and payables, which allows for the effective use of financial resources, increasing the level of liquidity and reducing financial risks. The advantages of using digital transformation, automated analysis tools and forecasting models in the process of debt optimization are also substantiated. The results of the study serve to improve the quality of financial management in enterprises, accelerate the movement of working capital and ensure long-term financial stability. These scientific approaches can be used to improve the financial practices of enterprises operating in the industrial, service and trade sectors.

Key words: receivables, payables, debt management, financial stability, liquidity, solvency, working capital, financial monitoring, risk management, ERP system, CRM system, factoring, forfeiting, digital transformation, financial analysis, corporate governance, cash flows, optimization methodology.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные методологические подходы к оптимизации дебиторской и кредиторской задолженности предприятий. В условиях рыночной экономики финансовая стабильность, платежеспособность и конкурентоспособность хозяйствующих субъектов во многом зависят от уровня эффективного управления дебиторской и кредиторской задолженностью. Увеличение дебиторской задолженности замедляет оборот оборотного капитала предприятия и приводит к снижению показателей ликвидности, в то время как чрезмерное увеличение кредиторской задолженности может повысить финансовые риски и привести к нарушению платежной дисциплины. С этой точки зрения важно формировать оптимальный объем этих долгов и совершенствовать научно обоснованные механизмы их управления. Цель исследования – анализ современных методологических подходов к оптимизации дебиторской и кредиторской задолженности предприятий, оценка их влияния на финансовые результаты и разработка научных предложений и практических рекомендаций, направленных на повышение эффективности управления. В процессе исследования использовались систематический анализ, сравнительный анализ, экономико-статистические методы, коэффициентный анализ, методы группировки и сравнения. Кроме того, оценка проводилась на основе коэффициентов оборачиваемости дебиторской и кредиторской задолженности, показателей текущей и операционной ликвидности, денежных потоков и показателей финансовой стабильности. Результаты исследования показали, что использование цифровых технологий в системе управления дебиторской и кредиторской задолженностью, усиление финансового мониторинга и внедрение риск-ориентированных механизмов управления способствуют улучшению финансового состояния предприятий. В частности, мониторинг ситуации с задолженностью в режиме реального времени с помощью ERP и CRM-систем, анализ платежеспособности контрагентов на основе рейтинговых методов и эффективное использование финансовых инструментов, таких как факторинг и форфейтинг, позволяют ускорить оборачиваемость дебиторской задолженности. При этом было установлено, что прогнозирование денежных потоков, формирование графиков платежей и регулярный анализ структуры сроков погашения обязательств имеют большое значение в управлении кредиторской задолженностью. В статье предлагается интегрированная модель управления, основанная на взаимной координации дебиторской и кредиторской задолженности, которая позволяет эффективно использовать финансовые ресурсы, повышать уровень ликвидности и снижать финансовые риски. Обоснованы также преимущества использования цифровой трансформации, автоматизированных инструментов анализа и моделей прогнозирования в процессе оптимизации задолженности. Результаты исследования служат для повышения качества финансового управления на предприятиях, ускорения движения оборотного капитала и обеспечения долгосрочной финансовой стабильности. Эти научные подходы могут быть использованы для улучшения финансовой практики предприятий, работающих в промышленном, сервисном и торговом секторах.

Ключевые слова: дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, управление долгом, финансовая стабильность, ликвидность, платежеспособность, оборотный капитал, финансовый мониторинг, управление рисками, ERP-система, CRM-система, факторинг, форфейтинг, цифровая трансформация, финансовый анализ, корпоративное управление, денежные потоки, методология оптимизации.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, aylanma mablag'lardan samarali foydalanish hamda to'lov intizomini mustahkamlash masalalari bugungi kunda eng dolzarb iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro savdo hajmlarining kengayishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va moliyaviy xavflarning ortib borishi sharoitida debitorlik hamda kreditorlik qarzlarni samarali boshqarish korxonalar faoliyatining muhim strategik yo'nalishiga aylanmoqda. Xalqaro amaliyotda debitorlik va kreditorlik qarzlarni korxonalarining likvidligi, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy moliyaviy indikatorlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda korxonalarda qarzdorlikni boshqarish tizimining samaradorligi investitsion jozibadorlik va iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik sharhida O'zbekiston iqtisodiyotining 2024–2025-yillardagi o'sish sur'atlari 5,5–6,5 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilingan bo'lib, bunday sharoitda korxonalarining moliyaviy resurslarini oqilona boshqarish va qarzdorlik darajasini nazorat qilish yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ham korxonalar faoliyatining moliyaviy samaradorligini oshirish, ichki moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish hamda qarzdorlik bilan bog'liq muammolarni qisqartirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirishga qaratilgan farmonida ichki audit tizimini takomillashtirish, moliyaviy nazorat jarayonlarini raqamlashtirish va mablag'lardan samarali foydalanish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur chora-tadbirlar korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni nazorat qilish hamda moliyaviy intizomni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari sonining ortishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi hisob-kitob munosabatlari ham sezilarli darajada kengaymoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-oktabr holatida respublikada faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 460,3 mingtani tashkil etgan bo'lib, ularning 84,8 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi. Korxonalar sonining ko'payishi o'z navbatida debitorlik va kreditorlik qarzlarni hajmining ham ortishiga sabab bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayrim hududlarda yirik korxonalarining debitorlik qarzdorligi o'nlab trillion so'mlarga yetgan bo'lib, bu holat moliyaviy resurslar aylanishining sekinlashishiga va likvidlik bilan bog'liq xavflarning kuchayishiga olib kelmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, debitorlik qarzlarning ortib ketishi korxonaning erkin pul oqimlarini kamaytiradi, kredit resurslariga qaramlikni oshiradi hamda ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kreditorlik qarzlarning me'yoridan ortiq ko'payishi esa moliyaviy barqarorlikning pasayishi, kontragentlar bilan munosabatlarning yomonlashuvi va qo'shimcha moliyaviy xarajatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu bois rivojlangan davlatlar amaliyotida qarzdorlikni boshqarishning zamonaviy usullari, jumladan, ERP va CRM tizimlari, faktoring, forfeiting, raqamli monitoring hamda risk-menejment mexanizmlaridan keng foydalanilmoqda. O'zbekistonda ham iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlari doirasida korporativ moliyaviy boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi holatlar korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni optimallashtirishning zamonaviy metodologik yondashuvlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini baholash hamda samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot korxonalarda qarzdorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni boshqarish hamda optimallashtirish masalalari jahon iqtisodiyotida korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida keng tadqiq etilgan. Xususan, xorijiy olimlardan Lawrence J. Gitman debitorlik qarzlarni samarali boshqarish korxonalar likvidligini ta'minlash va aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirishning asosiy vositalaridan biri ekanligini ta'kidlagan [1]. Eugene F. Brigham va Joel F. Houston korxonalarda kreditorlik va debitorlik qarzlarni o'rtasidagi optimal nisbatni saqlash moliyaviy xavflarni kamaytirish hamda korxonalar qiymatini oshirishga xizmat qilishini asoslab berganlar [2]. Shuningdek, Richard A. Brealey, Stewart C. Myers va Franklin Allen tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aylanma kapitalni boshqarish tizimida qarzdorlik ko'rsatkichlarini nazorat qilish korporativ moliyaviy boshqaruvning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan [3].

MDH mamlakatlari olimlari orasida ushbu masala bo'yicha salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, V.V. Kovalev debitorlik va kreditorlik qarzlarni korxonalar moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim indikator sifatida baholab, ularning aylanish tezligini oshirish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashini qayd etgan [4].



G.V. Savitskaya esa xo'jalik yurituvchi subyektlarda qarzdorlik tarkibini muntazam tahlil qilish va monitoring olib borish orqali moliyaviy xavflarni kamaytirish mumkinligini ta'kidlagan [5]. Rossiyalik iqtisodchi A.D. Sheremet tadqiqotlarida debitorlik va kreditorlik qarzlarning muvozanatini saqlash korxonaga to'lov qobiliyatini oshirishning muhim sharti sifatida ko'rsatib o'tilgan [6].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham mazkur yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, Qudratov G. va To'xliyev B. korxonalarda moliyaviy resurslarni boshqarish tizimida debitorlik qarzlarni qisqartirish aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirishini asoslab berganlar [7]. Ibragimov A.T. hamda Rizaqulov A.A. ilmiy ishlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil tizimida qarzdorlik monitoringini takomillashtirish zarurligi qayd etilgan [8]. Biroq mavjud tadqiqotlarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni raqamli texnologiyalar, risk-menejment vositalari hamda integratsiyalashgan moliyaviy boshqaruv tizimlari asosida optimallashtirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy zaruratini va dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni optimallashtirishning zamonaviy metodologik yondashuvlarini takomillashtirish, ularning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash hamda qarzdorlikni samarali boshqarishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida debitorlik va kreditorlik qarzlarning shakllanish mexanizmlari, ularning korxonalar moliyaviy holatiga ta'siri hamda qarzdorlikni boshqarishning ilg'or xorijiy va milliy tajribalari tahlil qilindi.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlari bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar tanlandi. Tadqiqot predmeti esa korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni boshqarish, monitoring qilish, baholash hamda optimallashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar hisoblanadi. Mazkur yondashuv qarzdorlikni boshqarish tizimining nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini kompleks ravishda o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqotda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli yordamida debitorlik va kreditorlik qarzlarning korxonaga moliyaviy boshqaruv tizimidagi o'rni va ahamiyati o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali xorijiy va milliy amaliyotdagi mavjud yondashuvlar taqqoslandi. Iqtisodiy-statistik tahlil usullari yordamida qarzdorlik ko'rsatkichlarining dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlari baholandi. Shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanish orqali nazariy xulosalar shakllantirildi, guruhlash va taqqoslash usullari esa qarzdorlikning moliyaviy natijalarga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil jarayonida debitorlik va kreditorlik qarzlarni baholovchi bir qator moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanildi. Jumladan, debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti, debitorlik qarzlarni undirishning o'rtacha muddati, kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti, joriy likvidlik koeffitsiyenti, tezkor likvidlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti hamda pul oqimlari ko'rsatkichlari asosiy tahlil mezonlari sifatida tanlandi. Mazkur indikatorlar korxonalarda qarzdorlik holatini kompleks baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi muallif tomonidan taklif etilgan integratsiyalashgan metodologik yondashuvda namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, debitorlik va kreditorlik qarzlarni alohida emas, balki o'zaro bog'liq moliyaviy kategoriyalar sifatida boshqarish taklif etiladi. Bunda qarzdorlik monitoringi, kontragentlar riskini baholash, pul oqimlarini prognozlashtirish va raqamli nazorat vositalaridan foydalanish yagona boshqaruv tizimiga integratsiya qilinadi. Mazkur yondashuv korxonaning moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida debitorlik va kreditorlik qarzlarni optimallashtirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model besh bosqichdan iborat bo'lib, ular: qarzdorlik holatini diagnostika qilish, kontragentlarning moliyaviy holatini baholash, qarzdorlik risklarini tasniflash, boshqaruv choralari ishlab chiqish va monitoring natijalarini baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Modelning amaliy qo'llanilishi debitorlik qarzlarning aylanish tezligini oshirish, muddati o'tgan qarzdorlik ulushini kamaytirish, kreditorlik majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish hamda korxonaning umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi. Shu jihatdan, taklif etilgan metodologik yondashuv va optimallashtirish modeli korxonalarda zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirishning muhim ilmiy-amaliy vositasi sifatida xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni boshqarish samaradorligini baholash maqsadida 2022–2025-yillar kesimida sanoat korxonalari faoliyati bo'yicha umumlashtirilgan moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, korxonalarda ishlab chiqarish hajmlarining ortishi



bilan bir qatorda debitorlik va kreditorlik qarzlari hajmi ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Mazkur holat bir tomondan savdo operatsiyalarining kengayganligini bildirs, ikkinchi tomondan aylanma mablag'larning muayyan qismi hisob-kitoblarda band bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlari dinamikasi (mlrd so'm)¹

Yillar	Debitorlik qarzi	Kreditorlik qarzi	Debitorlik/Kreditorlik nisbati
2022	145,2	138,7	1,05
2023	168,4	154,9	1,09
2024	192,7	171,5	1,12
2025	214,3	185,8	1,15

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2022–2025-yillar davomida debitorlik qarzlari hajmi 47,6 foizga, kreditorlik qarzlari esa 34,0 foizga oshgan. Debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbatining 1,05 dan 1,15 gacha ko'tarilishi korxonalarda mablag'larning muomaladan chiqib ketish darajasi ortayotganligini anglatadi. Bu esa korxonalarining likvidligi va pul oqimlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni boshqarish samaradorligini aniqlash uchun aylanish koeffitsiyentlari tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval. Debitorlik va kreditorlik qarzlari aylanish ko'rsatkichlari²

Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024	2025
Debitorlik qarzlari aylanish koeffitsiyenti	7,8	7,4	7,0	6,6
Debitorlik qarzlarni undirish muddati (kun)	46	49	52	55
Kreditorlik qarzlari aylanish koeffitsiyenti	8,5	8,1	7,8	7,5
Kreditorlik qarzlarni to'lash muddati (kun)	42	45	47	49

Tahlil natijalari debitorlik qarzlari aylanish koeffitsiyentining pasayish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2022-yilda 7,8 martani tashkil etgan mazkur ko'rsatkich 2025-yilda 6,6 martagacha kamaygan. Shu bilan birga, debitorlik qarzlarni undirish muddati 46 kundan 55 kungacha uzaygan. Bu esa xaridorlar tomonidan to'lovlarning kechiktirilishi va korxonalarda pul mablag'lari aylanish tezligining pasayishini anglatadi. Kreditorlik qarzlari bo'yicha ham shunga o'xshash tendensiya kuzatilgan bo'lsa-da, uning o'sish sur'ati nisbatan past darajada qolgan.

Tadqiqot davomida muallif tomonidan debitorlik va kreditorlik qarzlarni optimallashtirishning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi. Mazkur model kontragentlarni reyting asosida baholash, qarzdorlik monitoringini raqamlashtirish, pul oqimlarini prognozlashtirish hamda risklarni boshqarish mexanizmlarini yagona tizimga birlashtirishga asoslangan. Model samaradorligini baholash maqsadida shartli hisob-kitoblar amalga oshirildi (3-jadval).

3-jadval. Taklif etilgan modelni joriy etish natijalari³

Ko'rsatkichlar	Amaldagi holat	Model joriy etilgandan so'ng
Debitorlik qarzlarni undirish muddati (kun)	55	42
Muddati o'tgan qarzlari ulushi (%)	18,4	10,2
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	1,21	1,48
Pul oqimlari samaradorligi (%)	100	118

Hisob-kitoblar natijasiga ko'ra, taklif etilgan model joriy etilgandan keyin debitorlik qarzlarni undirish muddati 23,6 foizga qisqarishi, muddati o'tgan qarzlari ulushi esa deyarli ikki baravar kamayishi mumkin. Shu bilan birga, joriy likvidlik koeffitsiyenti 1,21 dan 1,48 gacha oshishi korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyatlari yaxshilanishini ko'rsatadi.

Olingan natijalar xorijiy olimlar L. Gitman, E. Brigham va J. Houston tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan hamohangdir. Ularning tadqiqotlarida debitorlik qarzlarni faol boshqarish va kontragentlar riskini baholash

1 Muallif tomonidan shartli statistik ma'lumotlar asosida tuzildi.

2 Muallif tomonidan shartli statistik ma'lumotlar asosida tuzildi.

3 Muallif tomonidan shartli statistik ma'lumotlar asosida tuzildi.



korxonalar moliyaviy barqarorligining muhim omili sifatida e'tirof etilgan. Mazkur tadqiqot natijalari esa ushbu nazariy qarashlarni O'zbekiston korxonalari faoliyati misolida amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar debitorlik va kreditorlik qarzlarni alohida emas, balki o'zaro bog'liq moliyaviy kategoriyalar sifatida boshqarish zarurligini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalar, moliyaviy monitoring va risk-menejment vositalaridan foydalanishga asoslangan integratsiyalashgan yondashuv korxonalarining likvidligini oshirish, pul oqimlarini barqarorlashtirish va moliyaviy xavflarni kamaytirishning samarali vositasi hisoblanadi. Shu sababli korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni optimallashtirish bo'yicha taklif etilgan metodologik modelni amaliyotga joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. O'tkazilgan tahlillar asosida birinchidan, debitorlik qarzlarning haddan tashqari ortishi aylanma mablag'lar aylanish tezligining pasayishiga va korxonalarining likvidlik darajasining yomonlashishiga olib kelishi aniqlandi. Ikkinchidan, kreditorlik qarzlarning maqbul darajada saqlanishi korxonalariga qo'shimcha moliyaviy manba vazifasini bajarishi mumkinligi, biroq ularning ortiqcha ko'payishi moliyaviy xavflarni kuchaytirishi asoslandi. Uchinchidan, debitorlik va kreditorlik qarzlarni alohida emas, balki o'zaro bog'liq moliyaviy kategoriyalar sifatida boshqarish zarurligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. To'rtinchidan, qarzdorlik monitoringini raqamlashtirish va risklarni baholash mexanizmlarini joriy etish hisob-kitoblar samaradorligini oshirishi aniqlandi. Beshinchidan, debitorlik qarzlarni undirish muddatini qisqartirish korxonalarining pul oqimlarini barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi isbotlandi. Oltinchidan, kontragentlarning moliyaviy holatini muntazam baholash muddati o'tgan qarzdorlik ulushini kamaytirishga imkon berishi belgilandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda taklif etilgan metodologik yondashuv korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni boshqarish samaradorligini oshirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish hamda likvidlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Muallifning ilmiy yangiligi debitorlik va kreditorlik qarzlarni optimallashtirishning integratsiyalashgan modelini ishlab chiqish hamda qarzdorlik monitoringi, risk-menejment va raqamli boshqaruv vositalarini yagona tizim sifatida qo'llashni asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot natijalari asosida korxonalar uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, kontragentlarni reyting baholash tizimini joriy etish; ikkinchidan, debitorlik qarzlarni real vaqt rejimida nazorat qiluvchi ERP va CRM tizimlaridan foydalanish; uchinchidan, faktoring va boshqa zamonaviy moliyaviy instrumentlarni keng qo'llash; to'rtinchidan, pul oqimlarini prognozlashtirish va to'lov kalendarlarini shakllantirish amaliyotini takomillashtirish; beshinchidan, muddati o'tgan qarzdorlik bo'yicha doimiy monitoring tizimini yaratish.

Kelgusidagi tadqiqotlarda sun'iy intellekt texnologiyalari, raqamli platformalar va katta ma'lumotlar (Big Data) asosida debitorlik hamda kreditorlik qarzlarni prognozlash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gitman L.J. Principles of Managerial Finance. – 15th ed. – Boston: Pearson Education, 2018. – 832 p.
2. Brigham E.F., Houston J.F. Fundamentals of Financial Management. – 16th ed. – Boston: Cengage Learning, 2022. – 864 p.
3. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. – 14th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2023. – 976 p.
4. Van Horne J.C., Wachowicz J.M. Fundamentals of Financial Management. – 14th ed. – Harlow: Pearson Education, 2019. – 720 p.
5. Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. Essentials of Corporate Finance. – 11th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2019. – 672 p.
6. Kovalev V.V. Finansovyy analiz: metody i protsedury. – Moskva: Finansy i statistika, 2020. – 560 s.
7. Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya. – Moskva: INFRA-M, 2021. – 378 s.
8. Sheremet A.D. Teoriya ekonomicheskogo analiza. – Moskva: INFRA-M, 2020. – 352 s.
9. Blank I.A. Upravleniye finansovoy stabilnostyu predpriyatiya. – Kiyev: Nika-Tsentr, 2020. – 496 s.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimini takomillashtirishga oid Farmoni.
11. Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 456 b.
12. To'xliyev N., Haqberdiyev Q., Ergashev O. Korxonalar iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 512 b.
13. Rizaqulov A.A. Moliyaviy tahlil nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. – 384 b.
14. Qudratov G'. Korxonalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022. – 268 b.
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi. – Toshkent, 2024.
16. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy faoliyati bo'yicha statistik to'plamlar. – Toshkent, 2024–2025.



17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Prezident farmonlari va qarorlari. URL: <https://president.uz>
18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti. URL: <https://cbu.uz>
19. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti. URL: <https://stat.uz>
20. Jahon banki ma'lumotlar bazasi (World Development Indicators). URL: <https://data.worldbank.org>
21. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) statistik ma'lumotlari. URL: <https://www.imf.org>
22. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) Database. URL: <https://www.oecd.org>
23. ScienceDirect xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi. URL: <https://www.sciencedirect.com>
24. Google Scholar ilmiy qidiruv tizimi. URL: <https://scholar.google.com>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
